



KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA METAFORANING LISONIY TAHLILI MASALASI

Haydarov Jasur Baxodirovich

O'zbekiston davlar jahon tillari universiteti
koreys tili fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10863751>

ARTICLE INFO

Received: 17th March 2024

Accepted: 19th March 2024

Published: 23rd March 2024

KEYWORDS

koreys tili, leksikologiya, metafora, ma'no ko'chishi, til, tafakkur.

ABSTRACT

Koreys leksikologiyasi va uslubshunosligida ancha mukammal ishlanishi lozim bo'lgan masalalardan biri metafora hisoblanadi. Predmetlar orasidagi umumiy o'xshashlikka asoslangan holda ma'no ko'chirish metafora bo'lib, bunda asosiy (bosh) belgi narsa va hodisalar orasidagi qaysi bir tomon bilan o'xshashlikdir.

Metafora qadimdan o'rganila boshlangan, bu masaladagi nazariy qarashlar metaforani—nutq bezagi deb tushunishdan inson tafakkurining muhim mexanizmlaridan biri sifatida tushunish tomon o'zgarib borgan. Xususan, ijodiy individuallikka e'tiborning kuchayishi bilan poeziyada metaforaning ahamiyati ham ortib borgan, unga til va tafakkur bilan bog'liq hodisa sifatida qarala boshlangan.

Metafora atamasi hozirda o'xshashlik asosida ko'chma ma'noda qo'llangan bitta so'zni, matnning bir bo'lagida ifodalanuvchi obrazni, ba'zan esa butun boshli asarni ham anglatadi. Ya'ni keng ma'noda metafora poeziyada (umuman san'at) dagi bir narsa-hodisa mohiyatini ikkinchi narsa- hodisa orqali ochish, fikrni obrazli va bivosita ifodalashning har qanday shaklini anglatadi.

Metafora badiiy tafakkurning asosiy mexanizmi bo'lib, badiiy asarning barcha sathlarida (tildan boshlab kompozitsion qurilishigacha) kuzatiladi. Shunga ko'ra, o'rganilish ko'lamidan qat'i nazar (muayyan asar, alohida san'atkor ijodi, u yoki bu adabiy yo'nalish, maktab avlod va b.), metaforani tizim sifatida o'rganish talab etiladi. Metafora aslida nomi yo'q bo'lgan narsa-tasavvurlarga nom berish, ularni atashning eng muhim vositalaridan biridir. Ammo bu vositadan foydalanish faqat ana shu ehtiyojgagina bog'liq emasligini, u inson tabiatidagi obrazli ifodaga o'chlik bilan aloqadorligini, nomi bor narsalarni ham metaforik yo'l bilan ifodalashga insonda ichki bir tabiiy intilish mavjudligini mutaxassislar alohida ta'kidlaydilar. Har qanday lingvistik hodisa kabi metafora ham lisoniy asosga ega. Sememaaga mohiyatan mos bo'lgan semalarning turlicha yaqinlashuvi sababli yangi-yangi ma'noga egadek tuyuluvchi nutqiy so'z aslida yagona lisoniy mohiyatlidir. Ana shu mohiyatning yuzaga chiqish imkoniyatlari – o'xshashlik, aloqadorlik kabilar orqali yangi ko'rinish kasb eta oladi.

Metafora ana shu imkoniyatlardan bittasi – obyektiv (yoki subyektiv) borliqdagi o'xshashlikning lisoniy akti bo'lmish mutanosib semalar asosida bir narsaning nomi ikkinchi bir narsa nomi o'rnida qo'llanilishidir. Metafora – ko'p qirrali jarayon. Shuning uchun ham

uning tasnifi bir necha jihatni qamrab olishi shubhasiz. Metafora va soʻz yasalishi orasidagi farq aynan semantik strukturada yotadi. Yaʼni metafora soʻz semema strukturasi oʻzgartira olmaydi, soʻz metaforik qoʻllanganda uning semalari toʻligʻicha saqlanib qoladi, faqat ayrim semalar yorqinlashsa, ayrimlari xiralashadi. Soʻz yasalishi esa soʻz semema strukturasi butunlay yangilaydi. Tashqi jihatlardan soʻz yasalishi va metafora bir-biriga juda oʻxshaydi. Chunki har ikkalasi ham nomlashni nazarda tutadi. Koʻp maʼnolilik, metonimiya, oʻxshatish va soʻz yasalishi metafora bilan lisoniy sistem munosabatda turadi. Soʻz semema strukturasi oʻzgarish nisbatiga koʻra koʻp maʼnolilik, metonimiya, metafora bitta gruppani tashkil etib, bir tomondan soʻz semema strukturasi hech qanday oʻzgarishga yoʻl qoʻymaydigan oʻxshatish, ikkinchi tomondan soʻz semema strukturasi oʻzgarishini nazarda tutadigan soʻz yasalishiga oppozitsiyada turadi. Ammo soʻz yasalishi munosabati jihatidan ular bir xil pozitsiya egallaydi. Metonimiya va metafora soʻz yasalishiga bir xil munosabatda va oppozitsiyada turadi. Ularning ikkalasi ham muayyan semalarning yorqinlashuvini nazarda tutib, mustaqil semalarning ajrala borish jarayonini aks ettiruvchi koʻp maʼnolilik soʻz yasalishiga yaqin turadi. Bu sistema aʼzolarining munosabat tizimi, bizningcha, ana shu xilda boʻladi.

Metaforaga oʻxshab ketadigan bir nechta hodisalar (kinoya, bilvosita nutq, simvol, yolgʻon va boshqalar) mavjudki, ular yuqoridagi hodisalarga nisbatan metaforadan lisoniy mohiyatiga koʻra ancha farq qiladi. Biroq ular uslubiy va nutqiy imkoniyatlariga koʻra metaforaga yaqin keladi hamda shu tufayli baʼzan metafora bilan chalkashtirish hollari uchraydi. Bu hodisalar aslida bir sistemaga birlashadi va soʻz yasalishi, koʻp maʼnolilik, metafora, metonimiya tizimi bilan oppozitiv munosabatga kirishadi. Metafora oʻxshash, shuning uchun ayrim holatlarda metafora deb talqin qilinuvchi koʻplab yondosh hodisalar shaklan va uslubiy, vazifasiga koʻra yaqin kelsa-da, mohiyatan metaforadan farq qiladi. Masalan, koʻp maʼnolilik mustaqil semalarning umumiy sema (yoki semalar) vositasida bitta soʻz doirasida bogʻlanib qolishi natijasi boʻlib, unga haqiqatan ham metafora asos boʻlgan boʻlishi mumkin.

Metaforik va koʻp maʼnoli soʻz ikki farqli hodisa boʻlib, tur-jins munosabatida turmaydi. Nom koʻchishining alohida bir turi sifatida baholanuvchi funksiyadoshlik mohiyatiga nazar tashlash uni aslida metaforaning oʻzi ekanligini koʻrsatadi. Bizga maʼlumki, metafora oʻxshashlikni nazarda tutadi, oʻxshashlik qay asosda (shaklan, tabiatan, vazifasiga koʻra) boʻlishi ahamiyatsiz. Shuning uchun biz funksiyadoshlikni metafora koʻrinishlaridan biri sifatida baholadik. Metonimiya (uning koʻrinishlaridan biri boʻlgan sindekdoxa) metaforaga ancha yaqin keladi. Farq shundaki, metafora oʻxshashlikni, metonimiya bogʻliqlikni nazarda tutadi. Oʻxshashlik va bogʻliqlik farqi metafora va metonimiya yana bir farqni yuzaga keltiradi: bogʻliqlik obyektiv ravishda haqiqatan mavjud, oʻxshashlik esa obyektiv ham, subyektiv ham boʻla oladi. Demak, metonimiya metaforaga nisbatan obyektivroqdir. Oʻxshatish va metafora munosabati metafora nazariyasining eng munozarali masalalaridandir. Ular bir-biriga nihoyatda yaqin kelishi bilan birga, tubdan farq ham qilishi mumkin:

- a) shaklan;
- b) mazmunan;
- v) usluban;
- g) yoʻnalishiga koʻra.

Metafora (은유), metaphor yoki amyu (암유) narsalarning koʻrinib turgan maʼnosini yashirgan oʻxshashliklariga qaraganda bir qadam oldinga siljiydi, asosan faqat yordamchi tushunchani

taklif qiladi. O'xshatish usulida bo'lgani kabi '~처럼', '~같은' va '~듯' kabi bog'lanish so'zlari ishlatilmaydi. Masalan, 그대의 눈은 셋별같이 밝다 (Sizning ko'zlaringiz tong yulduzi kabi porlaydi) iborasi taqlid, ammo 그대의 눈은 셋별이다 (Ko'zlaringiz tong yulduzi) iborasi metafora. Metafora nozik metafora bilan taqqoslagandan ko'ra ta'sirchan iboralarni ifoda etishi mumkin, ammo metafora suiiste'mol qilinsa, kontekst boshi aylanib, gapning ma'nosi noaniq bo'lishi mumkin, shuning uchun ehtiyot bo'lish kerak. Metafora - bu ob'ektni boshqa predmet bilan aniq taqqoslaydigan, asl mohiyatini sirtida ifodalaydigan emas, balki faqat metaforani ifodalaydigan o'xshatish uslubiga aytiladi shakl. Misol: 당신은 나의 태양이다 (Sen mening quyoshimsan).

So'zning ko'p ma'noliligini o'rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Chunki, bir so'zning o'zida turli xil ma'noning bo'lishi uchun og'zaki va yozma nutqda qo'llashda uslubiy bo'yog'iga, ma'nosiga e'tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma'no ko'chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so'z o'yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosi to'qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma'no hosil bo'ladi.

So'zlarning ana shu nozik ma'no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi.

Leksema – tilning asosiy birligi. U bizni qurshab turgan olam unsurlarini nomlash uchun xizmat qiladi. Leksema faqat nomlash funksiyasi bilangina cheklanib qolmay, olam haqidagi bilimlarimizni kelajak avlodlarga yetkazish (kumulyativ vazifa), anglash (perspektiv), tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) – vazifasini ham bajaradi. Bu esa leksemaning naqadar ko'p qirrali hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Leksema va tushuncha o'zaro dialektik munosabatda bo'lsa ham, lekin har bir yangi tushuncha alohida so'z bilan ifodalana bormaydi. Agar har bir tushunchaga yangi so'z qo'llay berganimizda edi, til o'zining kommunikativ funksiyasini xiralashtirgan, yo'qotish darajasiga olib borgan bo'lar edi. Tilning xarakterli xususiyati shundaki, u xotirada saqlash mumkin bo'lgan sanoqli birliklar bilan cheksiz tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham yangi paydo bo'lgan tushunchalar, asosan, u yoki bu tilning amal qiladigan modellari asosida mavjud birliklar yordamida ifodalanadi. So'zni ko'chma ma'noda qo'llash ham yangi tushunchani tilda mavjud birliklar yordamida ifodalashning bir yo'lidir.

Metafora asosida nom ko'chishi predmet, belgi, harakat, holatlarning keng ma'nodagi o'xshashligiga asoslanadi. Asos konkret, abstrakt bo'lishi mumkin. Metafora tuzilishiga ko'ra sodda va kengaygan, badiiy hamda lingvistik metaforalarga ajratiladi¹. Lingvistik metafora ekspressiv bo'lmagan atama, badiiy metafora ekspressivdir. Ilmiy adabiyotlarda metaforani til va nutq hodisalari sifatida ikki turga ajratib ko'rsatadilar.

Tilshunoslikning o'rganilish obyekti tabiati ikki ziddiyatli jihatlar munosabatida shakllanishi masalasi ancha qadimdan qo'yilib kelingan bo'lsa-da, bu qarashning sistemalashgan va nazariy asoslangan ifodasi XX asrda paydo bo'ldi va F.de Sossyur nomi bilan bog'lanadi.

Til ikki tarkibiy qism – lison va nutqni qamrab oladi. Lison muayyan jamiyat a'zolari uchun umumiy va tayyor qolip va sxemalar tizimi bo'lib, ijtimoiy-chekli hodisadir.

¹ Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол.фанлари номзоди ... автореф. – Тошкент, 2000. –Б.

Nutq lisoniy xilma-xil yuzaga chiqish usullari bo'lgan shaxsiy, moddiy hodisadir. Har qanday tilga xos hodisa lisoniy va nutqiy jihatlariga ega bo'ladi. Nutqiy jihat kuzatish uchun qulay va bevositadir. Ammo shu bilan birga o'zgaruvchan va hisobsiz hamdir. Uning ortida – asosida nisbatan turg'un va chegaralangan lisoniy hodisa yotadi. Tilshunoslik fanining tarixiga nazar tashlasak, unda til hodisalarining birinchi jihatini o'rganish an'anasi kuchliroq ekanini ko'ramiz. Jumladan, metaforaning o'rganilishida ham. Uning ikkinchi jihati – lisoniy asosini o'rganish anchadan beri mavjud va dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev F. O'zbek tili leksikasining ba'zi bir masalalariga doir til va adabiyot instituti asarlari. – Tosh.: Fan, 1949.
2. Kim Mun Uk, Ismailov A. va boshqalar. Hozirgi ozbek adabiy tili. Toshkent. ToshDShI. 2007.
3. 김종택. 이디엄 연구. 어문학풍권 제25호. 서울: 한국어문학회, 1971.
4. 이영희. 국어의 관용적 표현과 의미의 다의화에 관한 연구. 1982
5. 심재기. 한국어 관용 표현의 화용론적 연구. 관악어문연구 11. 서울: 서울대 국문과, 1986.
6. '동물'명 관용 표현에 나타난 개념적 은유 양상 = The Conceptualization of Animals in Korean Idiomatic Expressions 김정아 (Kim Jung-a).

INNOVATIVE
ACADEMY